

Tadbirkorlik subyektlari va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish:

- ta'lim dasturlarini tashkil etish, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy savodxonligi bo'yicha ta'lim dasturlarini, shu jumladan moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy menejment va risklarni baholash va samarali boshqarish asoslarini o'qitishni tashkil etish;

- axborot materiallarini ishlab chiqish, mikromoliyalashtirish bo'yicha foydali va xavf-xatarlar, shuningdek, mikrokreditlardan samarali foydalanish bo'yicha maslahatlarni o'z ichiga olgan axborot materiallarini ishlab chiqish va tarqatish;

- konsalting, ya'ni tadbirkorlik subyektlariga mikromoliyaviy mahsulotlarni tanlash va moliyaviy menejment masalalari bo'yicha maslahatlar berishni tashkil etish kerak.

## **MAHALLALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH YO'LLARI**

***Dustmirzayev Farxod Bekmirzayevich***

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tayanch doktoranti*

Hozirgi kunda O'zbekistonda davlat boshqaruvini markazsizlashtirish va joylarda aholining tashabbusini rag'batlantirishga qaratilgan islohotlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalarning iqtisodiy va moliyaviy salohiyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Munitsipal boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali mahallalar faqat ijtimoiy-ma'naviy markaz sifatidagina emas, balki hududning iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim institut sifatida faoliyat yuritishi kerak.

So'nggi yillarda mahalliy byudjetlarning mustaqilligini kuchaytirish, resurslar taqsimotida adolat va samaradorlikni ta'minlash, aholi ishtirokini kengaytirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mahallalarda iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish sohasidagi tizimli yondashuvlar hali etarlicha shakllanmagan. Bu esa mahallalarning o'z daromad manbalarini shakllantirishda, investitsiyalarni jalb etishda va xizmatlar ko'rsatish samaradorligini oshirishda muayyan cheklanishlarga sabab bo'lmoqda.

Munitsipal boshqaruv tizimini rivojlantirishdagi asosiy risklardan biri — mahalliy hokimiyatlar moliyaviy mustaqilligining cheklanganligi va resurslar taqsimotida yuqoridagi boshqaruv organlariga qaramlik holatining saqlanib qolishi hisoblanadi. Shu bilan birga, aholi ehtiyojlarini joylarda aniqlash, hududiy imkoniyatlardan samarali foydalanish, mahalla tashabbuslarini iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash kabi sohalarda katta imkoniyatlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2023 yildagi PQ-402-son O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda

boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida qarorining 3-ilovasi bilan tasdiqlangan “Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanish tartibi to‘g‘risida” Nizomga muvofiq, jamg‘arma mablag‘lari quyidagi manbalar hisobiga shakllanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno) 10 foizi;

mahalla idoralari orqali ko‘rsatilgan davlat xizmatlari uchun undirilgan yig‘imning 10 foizi;

Bunda, ushbu mablag‘lar avtomatik tarzda mahalliy byudjet va tegishli tuman (shahar) Jamg‘armasiga taqsimlanadi.

mahalladagi hududi 2 000 kvadrat metrgacha bo‘lgan davlat ko‘chmas mulk obyektlarini hokimi yordamchisining onlayn-buyurtmanomasiga asosan to‘g‘ridan-to‘g‘ri elektron onlayn-auksion savdolari orqali sotishdan tushadigan mablag‘lar, baholash va sotish xarajatlari chegirilgan holda;

mahallaning mol-mulkinini belgilangan tartibda ijaraga berishdan olinadigan mablag‘lar;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek, tumanlar (shaharlar) mahalliy byudjeti prognozining ortiqcha bajarilgan qismi hisobidan;

xorijiy va xalqaro moliya institutlari hamda boshqa xorijiy donorlarning texnik ko‘mak mablag‘lari va grantlari;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar [1].

## 1-jadval

### Mahalla (munitsipalitet)lar faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini oshirish

No	Takliflar	Taklifni amalga oshirish mexanizmi	Kutilayotgan natijalar
1	Mahalliy soliq va yig‘imlar bazasini optimallashtirish	- Mol-mulk va yer solig‘ini bozor qiymatiga yaqinlashtirilgan baholash asosida qayta hisoblash, undirilgan mol-mulk va yer solig‘ini to‘liq mahallalar ixtiyorida qoldirish; - Soliq imtiyozlarini tahlil qilish va samarasizlarini bekor qilish;- Soliq to‘lovchilar yagona raqamli reestrini yaratish;	Tushumlar prognozi aniqlashadi, soliq intizomi oshadi, mahalliy byudjet barqarorligi ta‘minlanadi, mahallaning daromad manbai mustahkamlanadi.
2	Byudjetdan tashqari daromad manbalarini kengaytirish	- Munitsipal mulk obyektlarini ijaraga berish jarayonlarini raqamlashtirish;- Munitsipal xizmatlar uchun haq to‘lash tizimini takomillashtirish;- Munitsipal korxonalarda samaradorlik auditini o‘tkazish va biznes-rejalar ishlab chiqish.	Byudjetdan tashqari daromadlar ko‘payishi, moliyaviy mustaqillik oshishi, mulkdan foydalanish samaradorligi oshadi.
3	Investitsiya va davlat-xususiy	- DXSh asosida infratuzilma loyihalariga xususiy kapital jalb etish;- Munitsipal va	Infratuzilma loyihalariga

	sheriklik (DXSh) mexanizmlarini kuchaytirish	“yashil” obligatsiyalar chiqarish imkoniyatini o‘rganish;- Munitsipal investitsiya pasportlarini joriy etish.	investitsiyalar hajmi ortib, byudjet yuki kamayadi, ijtimoiy soha obyektlari rivojlanadi.
4	Byudjet xarajatlarini optimallashtirish va samaradorlikni oshirish	- Zero-based budgeting elementlarini joriy etish;- Raqamli monitoring va natijalarga asoslangan moliyalashtirish tizimini ishlab chiqish;- Energiya tejamkor texnologiyalarni qo‘llash.	Xarajatlar qisqaradi, mablag‘lar samarali taqsimlanadi, resurs tejamkorligi ta‘minlanadi.
5	Iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish orqali soliq bazasini kengaytirish	- Kichik biznes uchun raqamli soliq servislarini yaratish;- Munitsipal hududda agrar, sanoat va turizm klasterlarini rivojlantirish;- Yangi korxonalar uchun infratuzilmaviy qo‘llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish.	Yangi ish o‘rinlari yaratiladi, ishlab chiqarish o‘sadi, soliq bazasi kengayadi.
6	Grantlar va xalqaro moliya institutlari resurslarini jalb qilish	- Jahon banki, OTB, Islom taraqqiyot banki kabi tashkilotlar grantlariga mos loyihalar tayyorlash;- “Yashil iqtisod”, raqamlashtirish va energiya samaradorligi bo‘yicha xalqaro grant dasturlarida ishtirok etish.	Munitsipal loyihalar tashqi moliya bilan qo‘llab-quvvatlanadi, byudjet yuki kamayadi, barqaror rivojlanish ta‘minlanadi.

*Manba: Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.*

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2025 yildagi PQ-298-son “Alohida tuman (shahar) va mahallalarni aholining yashashi va tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi uchun namunali hududga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori bilan 33 ta tuman va 330 ta og‘ir mahalla belgilab olinib, bu tumanlarning har biriga 100 milliard so‘mdan, 330 ta mahallaning har biriga esa 5 milliard so‘mdan mablag‘ ajratiladi. Jahon banki va Islom taraqqiyot bankidan jalb qilingan 100 million dollar ham mazkur maqsadlarga qaratiladi. Bundan tashqari, ushbu tuman va mahallalardagi “drayver” loyihalar infratuzilmasi uchun yana 2 trillion so‘m beriladi. Umuman, bu dasturni moliyalashtirish uchun 7 trillion so‘mdan ziyod mablag‘ yo‘naltiriladi [2].

O‘zbekiston sharoitida mahallalarni moliyalashtirish tizimining amaldagi holatini o‘rganish va “Mahalla tizimida aholining moliyaviy ishtiroki va moliya boshqaruvni takomillashtirish” yuzasidan o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari tahlilidan kelib chiqqan holda, mahalla (munitsipalitet)lar faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini oshirish maqsadida bir qator takliflar ilgari suriladi (1-jadval).

Taqdim etilgan takliflar mahallalar (munitsipalitetlar)ning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash va iqtisodiy mustaqilligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ular mahalliy soliq tizimini optimallashtirish, byudjetdan tashqari manbalarni kengaytirish hamda davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlaridan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Bu orqali mahallalar o‘z daromad bazasini mustahkamlab, infratuzilmani rivojlantirish va aholiga ko‘rsatiladigan ijtimoiy

xizmatlar sifatini yaxshilash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, raqamlashtirish va hisobot tizimlarini joriy etish orqali moliyaviy shaffoflikni ta'minlash, xarajatlar samaradorligini oshirish hamda korrupsiyaviy xatarlarni kamaytirish mumkin bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2023 yildagi PQ-402-son O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida qarorining 3-ilovasi bilan tasdiqlangan "Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg'armasi mablag'laridan foydalanish tartibi to'g'risida" Nizom, <https://lex.uz/docs/-6705734>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2025 yildagi PQ-298-son "Alohida tuman (shahar) va mahallalarni aholining yashashi va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun namunali hududga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, <https://lex.uz/doc-passport/-7761166>

3. Malikov T. S., Olimjonov O. Moliya //O'quv qo'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya. – 2018.

4. Абдувохидов, А., Кадырова, Д., & Обилов, М. (2023). Пути совершенствования доходной базы местных бюджетов в Узбекистане. Экономическое развитие и анализ, 1(1), 4–12. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/44627>

5. Чугунов, Игорь и Макогон, Валентина и Пасичный, Николай и Никитишин, Андрей и Адаменко, Ирина и Крикун, Татьяна и Канева, Татьяна и Козарезенко, Людмила и Собчук, Сергей, Бюджетная политика социального развития (26 декабря 2018 г.). doi: <https://doi.org/10.21303/978-9949-7316-1-9>, доступно в SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3754781>

6. Хазраткулова Л. Современное состояние и проблемы системы межбюджетных отношений в республике узбекистан //Economics and Innovative Technologies. – 2023. – Т. 11. – №. 6. – С. 129-142.

## **AHOLI MOLIYAVIY SAVODXONLIGI OMILLARI**

**Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich**

*Guliston davlat universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti*

Moliyaviy savodxonlik — bu to'g'ri moliyaviy qarorlar qabul qilish va pirovardida individual moliyaviy farovonlikka erishish uchun zarur bo'lgan xabardorlik, bilim, ko'nikma, munosabat hamda xatti-harakatlar yig'indisidir (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti). Moliyaviy savodxonlik bo'yicha Prezident maslahat kengashi ta'rifiga ko'ra, moliyaviy savodxonlik — bu shaxsning butun hayoti davomida moliyaviy resurslarni samarali boshqarish uchun zarur bilim va ko'nikmalardan foydalanish qobiliyatidir. Shuningdek,